

TIL VA MAHORAT
(DILMUROD QURONOV ASASRLARI MISOLIDA)

Qodirov Abdulazizbek Luqmonjon o‘g‘li
QDPI tadqiqodchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada olim tili va mahorati munaqqid uslubini belgilovchi eng asosiy unsurlardan biri ekanligi misollar yordami izohlangan. Olim tili va mahoratining uslubdagi ahamiyati masalasi professor Dilmurod Quronov asarlari misolida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kompozitsiya, uslub, olim tili, tahlil metodlari, struktura.

Uslub ijodkorning boshqalardan ajratib turuvchi bir qator jihatlarining yig‘indisi sifatida yuzaga chiqib, uning shaxsiyatini aks ettiruvchi g‘oyaviy-estetik xususiyatlar umumlashmasidir.

Adabiyotshunos uslubini tahlil etish jarayonida uslubni namoyon etuvchi unsurlarga diqqatni qaratish lozim. Olim tili uslubni eng yorqin namoyon etuvchi unsurlardan biridir. Har bir olim ijodida so‘z va ifodalar o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi, ijodkor tafakkuri va ilmiy dunyoqarashidan kelib chiqqan holda yangi-yangi ma‘no qirralarini kasb etadi. Bu borada har bir adabiyotshunos yoxud munaqqid o‘z dastxatiga ega bo‘lmog‘i lozim. Atoqli olim Dilmurod Quronov ham adabiyotshunosligimiz va adabiy tanqid sohalarida o‘z dastxatiga ega ijodkorlardan. Dilmurod Quronov maqolalarini kuzatar ekanmiz, olim tilida so‘roq gaplardan, ko‘p holatlarda ritorik so‘roq gaplardan istifoda etish holatlariga duch kelamiz. Olim maqola yozishga kirishar ekan, avvalo, o‘zi bilan kengashib olgandek taassurot yuzaga keladi. Yozilajak maqolada nimalarni ifodalamoqchi bo‘lganini izohlash barobarida, maqola yozishga turtki bergan sabablarni ham keltirib o‘tadi. Misol uchun “Inson yo‘li” maqolasi boshlanishida “Turmushdagi o‘zgarishlar insonni o‘zgartiradimi yo insonning o‘zgarishi turish-turmushimizni?”[2:98] degan falsafiy savolni o‘rtaga tashlashdan boshlaydi. Fikrni davom ettirarkan “Sezib turibsiz, savol bamisoli “tovuq oldin paydo bo‘lganmi yo tuxum?” qabilida qo‘yildi. Ya‘niki, bir-biriga mutlaq zid javob berilgan taqdirda ham har ikki tomon o‘zicha haq bo‘lib chiqaveradi” singari jumlaning keltirish orqali bu masala yuzasidan olimning bir qarorga kelib bo‘lganligi, o‘z fikrini ifodalashga taraddudlanayotganligini sezish mumkin. Bu kabi holatlar olimning qator maqolalarida ko‘zga tashlanadi. “Shoir-da, ozroq mubolag‘a qilmasa bo‘lmaydi, dersiz?! Yo‘q, uning “ilk avval ko‘zimni ishq bilan ochdim” deyishi mubolag‘a emas. Zero, tanglayi millat dardi bilan ko‘tarilgan, Taraqqiy va Istiqloq ishq vujudiga sut bilan kirganu yurak qoniga aylangan uning. Mubolag‘aning daf‘iga mubolag‘a keltiryapti, demang, asli o‘zi shunday...” (“Ilk avval ko‘zimni ishq bilan ochdim” maqolasi), “Yuqoridagi she‘riy parchada birgina poetik obraz – o‘sha “yam-yashil chigirtka”ga yuklanayotgan ma‘no zalvorini chamalab ko‘rdingizmi? Chamalay olgan bo‘lsangiz, adolat haqqi

shuni uddalagan shoirga ham, ochib ko‘rsatolgan munaqqidga ham tahsin aytmog‘ lozim bo‘ladi” (Chaqmoqni yushuntirish zahmati” maqolasidan) shular jumlasidandir.

Olim tili haqida gapirganda D.Quronov maqolalaridagi gapni uzoqdan boshlash, hikoya va aforizmlardan foydalanish holatlariga alohida to‘xtalish zarur. Chunki bu kabi rivoyatlar va turg‘un birikmalardan foydalanish olim ijodida salmoqli o‘rin tutadi. Masalan, “Ota-bobolarimizdan meros bir hikmat bor: “Ilm istasang oqillar suhbatiga quloq tut...” (Fikrning doyasi” maqolasidan), “Ezopda bir masal bor: *“Zevs ho‘kizni yaratdi, Prometey – odamni, Afina – uyni. Uchalovi kimning ijodi mukammalroq ekanligi masalasida bahslashib qolishdi-da, hakamlikka Momni taklif qilishdi. Ularning ijodini ko‘rib, Momning g‘ayirligi keldi va dedi: “Zevsning xatosi shuki, ho‘kizning ko‘zlari shoxida emas – nimani va qaeriga suzayotganini bilolmaydi; Prometeyning xatosi shuki, odamning yuragi tashida emas, ichida ekan – uning yaxshi yo yomonligini birdan bilib bo‘lmaydi; Afina uyni g‘ildirakli qilmapti – yomon qo‘shni to‘g‘ri kelib qolsa qochib ketib bo‘lmaydi». Momning g‘ayirlik qilayotganini sezgan Zevsning qahri keldi va uni Olimpdan haydab soldi” (“Adabiy jarayonda Mom sindromi” maqolasidan) singari o‘rinlarda mazkur holatga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Bu ham olim tiliga xos xususiyatlardan biri bo‘lib, fikrni asoslash davomida olim tili va mahorat masalalari birgalikda namoyon bo‘ladi. Ya‘ni munaqqid yozayotgan maqolasiga tayyor matnni olib kirar ekan, bundan faqatgina fikrni dalillash uchun foydalanmaydi, balki olimning bu usuli matnni yanada “o‘qishli” chiqishini ta‘minlaydi.*

D.Quronov ijodida ilmiy va badiiy tafakkurning qorishiqligini, ayrim maqolalarda sof ilmiy tildan foydalanilgan bo‘lsa, ayrimlarida badiiy tilning jozibasini ko‘rish mumkin. D.Quronov asarlari tili haqida professor Qozoqboy Yo‘ldoshev “Uyg‘unlik” maqolasida shunday deydi: “U eng murakkab ilmiy tushuncha va muammolar mohiyatini teran anglab yetgani uchun ham ular haqida juda tushunarli yo‘sinda fikr yuritadi. Ilmiy ifodadagi tushunarsizlik bilishdagi chalalikning tashqi ko‘rinishidir. Olim eng chigal adabiy qonuniyatlarni anglatishda ham andijonliklar nutqida ko‘p uchraydigan “juday-la”, “hech yo‘q”, “bo‘libam” so‘z birikmalarini qo‘llaydiki, bu hol uning qarashlariga alohida samimiyat bag‘ishlaydi”[4:67]. Mana shu nuqtai nazardan qarajak, D.Quronovning til mahoratini uning uslubini belgilovchi eng asosiy komponentlardan biri sifatida ta‘kidlash o‘rindir.

Tanqidchi badiiy matn tahlili jarayonida obyektga olingan asar bahonasida inson va jamiyat, shuningdek, o‘zaro munosabatlar borasida ham o‘z qarashlarini bayon etadi, ularning ma‘lum bir qonuniyatlarini yoritishga intiladi. Ushbu

jarayonda munaqqidning ilmiy va badiiy tafakkuri bir-birini to‘ldiradi, birlashadi. Mazkur jarayon munaqqid tilining o‘ziga xosligini yuzaga keltiradi. Ifoda usulida ilmiy til va badiiy til sinkretiklashadi. Bu esa tanqidchining individual uslubi shakllanishida asos bo‘ladi.

Kompozisiya va til har bir asarning mazmuni va mohiyatini ochib berishda o‘z vazifasini bajaradi. Tanqidchi kompozisiya unsurlariga murojaat qilmasdan, fikrlarni bir-biriga bog‘lolmaydi, ilmiy asoslay olmaydi, matn ta’sir doirasini kengaytirolmaydi. Olim obyekt qilib olgan asarning mazmuniga muvofiq unsurlardan matn mohiyatini yanada aniqroq ifodalashga xizmat qiladigan eng muvofiqlarini tanlab oladi. Predmetlarni, unsurlarni tanlab olish jarayonida olim tasavvurida shu mohiyatni yorqin ifodalaydigan so‘zlar paydo bo‘ladi. Demak, adabiyotshunos o‘zining bayon qilishi va tasvirlashi davomida shu unsurlarni, predmetlarni u yoki bu darajada muvofiqroq joylashtirib, o‘zi murojaaaat qilgan manbalardagi fikrlarni ham bayon qilishga ma’lum darajada joy ajratib, “voqealarni tartib bilan, mantiqan tartiblashtirib, qismlarni, epizodlarni joy-joyiga qo‘yib sintaktik-intonasion tomondan tartiblashtirib, asarning so‘z qurilishini shakllantiradi.

Voqelik va badiiy asarlardagi “sir”larning aniqlanishidagi o‘ziga xoslik yana bir uslub unsuri sifatida yuzaga chiqadi. Adabiyotshunos yoki tanqidchi badiiy matnni o‘rganar ekan, adabiyot va san’atning xalq hayoti, orzu-intilishlari va davrning yetakchi tamoyillari, ruhini haqqoniy aks ettirishi masalasiga diqqat qaratadi. Masalan, D.Quronov „Mukammallik yo‘lida” maqolasida Abdulla Qodiriyga xos bo‘lgan „mukammallik” haqida so‘z yuritadi. Otabek hamda qutidor o‘rtasidagi suhbatda Otabek „necha yoshga kirdingiz bek?” degan savolga „yigirma to‘rtga ...” degan javobni beradi. Dastlabki nashrlarda matn davomidagi nutqini qutidor “eslay olmasg‘a haqlisiz” degan jumla bilan davom ettiradi. Keyinchalik Qodiriy mazkur jumlaning “eslay olmassiz” deya o‘zgartirganini kuzamiz. Bu jumlagacha e’tibor qaratar ekan, olim o‘zgartirishlar sababini quyidagicha izohlaydi: „Zero, avvalgi holida “haqlisiz” deyilishi bilan qutidor tomonidan suhbatdoshiga marhamat qilinayotgandek, haq berilayotgandek, kechirib qo‘yilayotgandek tuyulsa, keyingisida eslay olmaslikning tabiiyligi ta’kidlanadi – yoshi ulug‘, ko‘pni ko‘rgan odam sifatida qutidor yosh suhbatdoshini hijolatdan chiqarishga intilgani ko‘riladi. Bu bilan adib qutidor siyratiga muhim bir chizgi tortishga erishadi.”[3.15] Ko‘rinadiki, olim uslubida matn qa’ridagi barcha zamonlar uchun dolzarb bo‘lgan nuqtalarga ahamiyat qaratish va tahlil orqali kitobxonga ruhiy ozuqa berishga intilish yetakchilik qiladi. Shu bilan birga xalq hayoti, orzu-intilishlari va davrning yetakchi tamoyillarini haqqoniy aks ettirishi masalasi uslubga ijtimoiy hodisa sifatida qarash imkonini beradi.

Uslub unsuri sifatida adabiyotshunosning tahlil metodlaridan foydalanish mahorati ham muhim ahamiyatga ega. Uslub adabiyotshunosning talanti, madaniy saviyasi, aqliy quvvati, hayot tajribasi, olim sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirar ekan, ularni uning dunyoqarashidan, uning ijodiga rahnamo bo‘lgan metoddan ajratib tasavvur qilib bo‘lmaydi, uslub tushunchasi metod tushunchasi bilan bog‘liq, shuning uchun uslub tahlilisiz metodni, metodni nazarda tutmay uslubni tushunib bo‘lmaydi.

Metod yozuvchi singari adabiyotshunos, tanqidchining ham yo‘lini yoritadi, uning qo‘liga dasturamal tutadi. Hayot voqeligi tasvirlangan badiiy matnga qaysi tomondan yondoshish kerakligini o‘rgatadi. Hayotiy voqea-hodisalar aks etgan asarlar mag‘zidan eng muhimlarini vaqtida ilg‘ab olishga yordam beradi. Badiiy asarni xolisona baholay olish, tahlillar orqali chiqarilgan xulosalar kelajakka to‘g‘ri qaray bilishni o‘rgatadi. Badiiy asardagi o‘ziga xosliklarini ochib berish, voqealar, muhitning o‘ziga xos tasviriga baho berish individual uslubning muhim unsurlaridan desak haqiqatga yaqinlashgan bo‘lamiz. Chunki mashhur shoir Rasul Hamzatov “Eng mayda narsada eng ulkan narsa yotadi, eng ulug‘ narsa eng sodda narsada” ekanligini ta’kidlaydiki, bu yozuvchi uslubi juda ko‘p mayda uslubiy bo‘laklardan iborat degan asosga olib keladi.

Ilmiy-tanqidiy asarning pafosi uning yashovchanligi va kitobxonlar auditoriyasini o‘ziga tortuvchi hamda adabiyotshunos uslubiga bevosita ta’sir etuvchi unsurlardan biridir. Tanqidchi o‘z maqola, tadqiqotlarining ta’sirli bo‘lishi, xalqqa etib borishi to‘g‘risida ham o‘ylaydi, shuning uchun asarlarini xalqqa, kitobxonga murojaat qilib turib yozadi; shu bois ularda murojaat, bahs, fikrlashish, mushohada qilish, suhbat ohangi ustun, shuning uchun undov, savol, murojaat, tasdiq ohanglari almashinib turadi. Olimning hamma maqolasi ehtiros bilan, ba’zilari, adolatsizlikka qarshi hujumkorlik ruhi bilan yozilganligi asarlaridagi pafosni belgilashga xizmat qiladi. Misol uchun Dilmurod Quronovning adabiyotshunos Suvon Melievning Abdulla Qahhor qalamiga mansub „O‘g‘ri” hikoyasiga bag‘ishlangan „Mehr sehri”[4.149] maqolasiga javoban yozgan „O‘g‘ri”ning himoyasiga ikki og‘iz so‘z”[4.23] bahs -maqolasida olimning fikrni qat’iy pozitsiyada turib himoya qilishi, tahlil teranligi, xulosalarning aniq faktlarga asoslanganligi singari xususiyatlari ko‘zga tashlanadi.

Adabiy-tanqidiy asarda, maqolada muallif quruq, balandparvoz jumla, sun’iy ehtirosga yo‘l qo‘ymasligi, barcha fikrlarini teran, ilmiy asosga va chuqur umumlashmalar, o‘tkir xulosalar asosiga qurishi lozim. Tahlil qilinayotgan badiiy matnda xalq ruhi va uning intilishlari, orzu-armonlari haqqoniy ifodalanishiga e’tibor qaratishi va bu matnda ijodkorning inson va uning kelajagi uchun qanchalik qayg‘urishini yoritib berishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, munaqqid uslubini belgilashda olim tili va tahlil mahorati muhim ahamiyatga ega. Zero, badiiy asarning qay darajada mukammal chiqishi ijodkor poetik tili bilan bog‘liq bo‘lgani singari, tahlil va talqinning sifat darajasi ham munaqqid tiliga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жорж Луи Леклерк де Бюффон. Франция академиясига кириш нутки. [хтп://www.инфолиблиб.инфо/пхилос/буффон/буффон.хтмл](http://www.инфолиблиб.инфо/пхилос/буффон/буффон.хтмл)
2. Поспелов Н.Т. Проблемы литературного стиля. – Москва: Высшая школа, 1970, – С. 29-32.
3. “Шарқ юлдузи”. – Тошкент, 1972, 3 сон, – Б. 149.
4. Куронов Д. Мутолаа ва идрок машқлари . – Тошкент: Akademnashr, 2013.